

CREATIVE PEDAGOGY AS A PRIORITY OF MODERN PEDAGOGY

Yandasheva Gulchexra Sobirjanovna

Nizomiy nomidagi TDPU
o'qituvchisi

Abstract: This article highlights that the science of creative pedagogy is one of the priorities of modern pedagogy, as well as the importance of developing creative qualities in a person.

Keywords: "Creative pedagogy", a series of disciplines, innovative, professional development, ontogenesis, methodological ideas, socio-economic, integration, continuity, continuity, educational department, incentive, concrete, observation, original ideas, strategy.

Zamonaviy pedagogika fanida "kreativ pedagogika" tushunchasi qo'llanila boshlaganiga hali u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Biroq, o'qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo'lgan ehtiyoj "Kreativ pedagogika"ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta'minladi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o'qitish metodikasi, ta'lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g'oyalari tashkil etadi. "Kreativ pedagogika" fanining umumiy asoslari mutaxassis, shu jumladan, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kamol topishlari uchun zarur shartsharoitni yaratishga xizmat qiladi.

Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. SHaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. SHuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

Kreativ tafakkur va ijodkorlik muammosiga oid qiziqarli ma'lumotlarni, V.F.Vishnyakovning tadqiqotlarida ham ko'rish mumkin. U o'z izlanishlarida ilmida inson va mashina "tafakkuri" farqlarini ko'rsatib beradi. Mashina faqat model va belgilar orqali usulga ega bo'lsa, ijodiy muammoga esa aql kerakligini uqtiradi[5,102]. Ijodiy tafakkur qobiliyat bilan uyg'unlikda insonda hukm suradi. Bolalikda obrazli tafakkurga ega bo'lganimiz uchun bu qobiliyat obrazlarda, qo'l bilan yasalgan materiallarda aks etadi. O'smirlik yoshida ko'pchilik she'rlar, hikoyalar yozadi, har xil masalalar yechishga (tabiiy va aniq) fanlarga qiziqadi. Umuman biz har bir insonni ijodkor shaxs deb atashimiz mumkin. Ilmiy ish qilgan, sodda ixtirochilik namunasini namoyon etgan, asar yozgan kishini kreativ sub'yekt sifatida baholanadi. Agar kishi ruhiyati nosog'lom bo'lsa, undagi ijodiy tafakkur yuzaga chiqmaydi. Agarda inson aqliy qobiliyati yuqori bo'lsa, u yuqori darajada samarali ijod qila oladi. Inson intellektual bo'la oladi, ammo kreativ bo'lmasligi mumkin. Masalan, Levinson – Lessing oz sonli produktiv erudit olimlarni ajratib, ularni "kuchib yuruvchi biblioteka" deb ataydi. Ularda ijodiyot kuchli, ular o'z fantaziyalari bilan boshqalardan alohida ajralib turadi.

YA.A.Ponomarev kreativlikni o'rganishning to'rt yo'nalishini ko'rsatib beradi va ularning har birini izohlashga intiladi[6,85]:

- Kreativlik natija sifatida;
- Kreativlik qobiliyat sifatida;
- Kreativlik jarayon sifatida;
- Kreativlik shaxsning xususiyati sifatida.

Muallifning nazarida ushbu tasniflar butun bir ijodkorlik, yaratuvchanlik jarayonlariga tegishli bo'lib, u faoliyat samaradorligiga doim ta'sir etib bturadi.

M. Fersom, K.Teylor, D.Teylor va boshqalar birinchi yondashishning tarafdorlari safiga kiradilar. Ular ijodiy natijaning uch xususiyatini belgilab beradilar: miqdor, sifat, ahamiyat[7,123]. Demak, kreativlikda ushbu uch mezonning mazmunini o'rganish o'ta muhimdir.

Ko'pchilik tadqiqotchilar natijani ijodning yagona mezoni deb hisoblaydilar, goho bu fikrga nisbatan ishonchsizlik bildiradilar, unga shubha bilan qaraydilar. Jumladan, Teylor, Smit va boshqa olimlarning ko'rsatishicha, ijodiy natijaning ko'pchilik belgilagan ta'riflari faqat ayrim jihatlari bilan ijodga bevosita aloqasi bor, qolganlari esa, sinovdan o'tkazilayotgan sub'yektlar ishlarining umumiy natijalarini ta'riflashga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Kreativlikni jarayon sifatida o'rganishda ijodiy fikrlarning bir necha bosqichlari, darajalari va turlari ta'kidlab o'tiladi.

E.E.Tunik boshqalardan farqli o'laroq, ijodiy jarayonda to'rt bosqichga ajratadi[8,67]:

Psixologik jihatdan vaziyatga tayyorlanish;

Har bir ishda shaxsiy, kognitiv, motivatsimon jabhalar bilan erishish;

YUzaga kelgan vaziyatga nisbatan ruhlanish;

Muammo yoki vaziyatning haqiqatligini tekshirish.

YUqorida keltirilgan ushbu jarayon kreativ tafakkur xususiyatlari bo'lib, u biror bir faoliyatda shunday ko'rinishda ishlaydi.

Tadqiqotchi Patrikning eksperimental izlanishlari shuni ko'rsatdiki, 55 shoir va 50 rassom uchun 4 bosqichli ijod jarayoni o'ziga xos ravishda yuzaga kelgan. Natijada Uollesning mashhur sxemasi faqatgina uncha katta bo'lmagan o'zgarishlarga uchraydi. Bundan farqli tadqiqotlarni psixoanaliz ta'limotida ham ko'rish mumkin.

Kreativ jarayon darajalarini tadqiqot qilish psixoanaliz yo'nalishi bilan ham uzviy bog'liqdir. Ma'lumki, Z.Freyd ijodiy akti libido quvvati sublimatsiyasining natijasi sifatida ta'riflagan. Tadqiqot Myodnik tomonidan taklif qilingan uzoqlashtirilgan birikmalar (RAT) testi kreativ fikrlash ko'rinishi sifatida qaralgan izlanishlarning eng ko'p tarqalgani bo'lib hisoblanadi. Myodnik ijodiy jarayonni assotsiativ elementlarning yangi kombinatsiyalar shaklida qaytadan tuzib chiqish sifatida ko'rib chiqadi.

Uchinchi yo'nalish vakillari esa, kreativlikni qobiliyat tariqasida talqin qiladilar. Tadqiqotchi Simpson fikricha, kreativlik odam fikrlashining bir xildagi usullarini rad etish qobiliyatidir.

Tadqiqotchi T.V.Gal'kinaning aytishicha, kreativlik borasida yaratilgan va tasniflangan konsepsiyalar ichida, Dj.Gil'fordning qobiliyat va intellektning umumiy modeli eng e'tiborga molik sanalib, unda kreativ shaxsga xos to'rt xususiyat ajratadi[9,59]:

Originallik - izohlanishga mo'ljallangan birikmalar, o'zgacha javoblar natijalarini ko'rsatish qobiliyatidir;

Semantik egiluvchanlik - ob'yektning funksiyasini ajratish va undan yangicha foydalanishni taklif qilish qobiliyati;

Ifodali moslashtirilgan egiluvchanlik - yangi imkoniyatlarni ko'rish uchun rag'batlantiruvchi omillar shaklini o'zgartirish qobiliyati;

Semantik o'z-o'zidan yuzaga keluvchi egiluvchanlik - nisbatan cheklangan vaziyatlarda turli xil g'oyalar yaratish qobiliyati.

Ba'zi tadqiqotchilar, ijodiy qobiliyatlarni ayrim tahminiy tuzilishlar sifatida tushunadi, natijada bu tuzilishlar test shakllari orasidagi interkorrelizatsiya sifatida namoyon bo'ladi. Torrens bu qobiliyatlarni odamlar orasida mavjud bo'lmagan tafovut tariqasida ta'riflaydi. N.V.Vishnyakovaga ko'ra, kreativlik bu - nihoyatda kuchli darajada kamchiliklarni idrok qilish, bilimlardagi kamchiliklarni, yetishmaydigan elementlarni, disgarmoniya va hokazolarni idrok qilish qobiliyatlarini tushunadi. Ijodiy aktlar keyinchalik, sezish yechimni qidirish, yetishmovchi elementlarga nisbatan farazning paydo bo'lishi va shakllantirish, farazlarni tekshirish va ularni qayta tekshirish, modifikatsiyalash ehtimollari hamda natijalarni ma'lum qilishni kabilarni o'z ichiga qamrab oladi[10,128].

Kreativlikni o'rganishdagi to'rtinchi yo'nalish vakillari kreativlikni shaxs xususiyati sifatida tavsiflab, bunda shaxs muammosi mazkur tushuncha mazmuni bilan keskin uyg'unlashadi. Ushbu yo'nalish vakillari bo'lmish Gel'dshteyn, Rodjers, Masloular ijodiy jarayonni "o'zini-o'zi rivojlantirish" jarayoni deb tushuntirishga harakat qiladilar. Demak, kreativlik fenomeni mazmunida, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z -o'zini kamol toptirish ham mavjud.

Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi.

SHaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra jarayon tarzda namoyon bo'ladi. Kasbiy yetuklik inson ontogenezing muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g'oyalarining qaror topishi (14-17 yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (55-60 yosh)gacha bo'lgan jarayonda kechadi. Ijodkor shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ichki va tashqi olami o'zgarishining o'zaro mos kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar hamda inson ontogengizi - tug'ilishidan boshlab to umrining oxiriga qadar uzluksizlik, vorisiylikni taqozo etadigan faoliyat mazmuniga bog'liq.

So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida o'quvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Merriyman (2010 y.), Ken Robinson (2007 y.), Fisher, Frey (2008 y.), Begetto, Kaufman (2013 y.), Ali (2011 y.), Treffinger (2008 y.) va b. tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar, ularning natijalarini ko'rish mumkin.

Birgina Ken Robinson tomonidan 2007 yilda tayyorlangan "Maktab kreativlikni barbad etyaptimi?" nomli video lavhani YouTube saytida 5 mln marta tomosha qilingan. Qolaversa, o'qituvchilar kreativlik asoslarini o'rganishga jiddiy kirishganlar (Begetto, Kaufman, 2013 y.). O'qituvchilarda pedagogik faoliyatni kreativ yondashuv ko'nikma, malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga doir adabiyotlar chop etilyapti, Ta'lim departamenti tomonidan tayyorlangan video lavhalarga asoslanuvchi noan'anaviy darslar tashkil etilyapti (Ali, 2011; Ta'lim departamenti, 2013 y.).

Ta'lim tizimini boshqarish organlari har yili ta'lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e'tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o'quv dasturini ishlab chiqiladi, yangi o'quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham talabalar, ham o'qituvchilarni kasbiy o'sishlariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalarda yutuqlarga erishish, olg'a intilishga bo'lgan ehtiyojni muayyan arajada yuzaga keltiradi, ularning o'quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi.

Biroq, o'quv yilining oxirida kelib oliy ta'lim muassasalarida talabalarning fanlarni o'zlashtirishlarida yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmayapti. Ko'plab talabalarning ta'lim olishga nisbatan qiziqishi yo'qolgan. Buning natijasida o'qituvchilar ham avvalgidek zavqu shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishni o'ylashmayapti. Ta'lim tizimini boshqaruvchi organlar ta'lim olishga nisbatan xohish-istagi bo'lmagan talabalar, bu kabi ta'lim oluvchilarni o'qitishni istamayotgan o'qituvchilar faoliyatini o'zgartirish borasida yangidan-yangi chora-tadbirlar belgilansa-da, ahvol o'zgarishsiz qolmoqda.

Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g'oyasi, mazmuni, natijalari hisobiga ta'minlanadi. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlar shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, ob'yekti va sub'yektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir. Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik va aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega jarayon. Kreativlikni aniqlash davomida og'zaki va shaklli testlarni qiyoslash orqali o'quvchilarning individual jihatlarini ham baholash mumkin. Og'zaki shkala bo'yicha yuqori ball olgan bolalar va shaklli shkala bo'yicha yuqori ball olgan bolalar garchi ayrim o'qituvchilar ularni iqtidorlilar sirasiga qo'shsalar-da, biroq ular ko'pincha aqliy testlarni bajarishda va maktabda tahsil olishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Maktabdagi bilimdan va yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchilar orasida ko'pincha og'zaki sohada ijodiylikning yuqori ko'rsatkichga va ifodali-ko'rgazmali sohada esa past ko'rsatkichga ega bo'lish kabi ziddiyatli holatlar uchraydi.

Kreativlikni aniqlash uchun testlardan tashqari yana ijodiy kishilarga xos bo'lgan xulq-atvor shakllari, hissiylik, holatlar ro'yxati bilan maxsus so'rovnoma va varaqalar qo'llanilishi mumkin. Ushbu varaqalar sinaluvchining o'ziga yo'llangani kabi, uning atrofida qolganlariga ham yo'llangan. Ijodiy yutuqlarni tahlil qilish uchun odatda ekspertlar baholaridan: olimlarniki – ilmiy ishlar uchun, rassomlarniki – suratlar va rasmlar uchun, muhandislarniki – texnik kashfiyotlar uchun foydalaniladi. Bunday baholar uchun standartlar har doim jamoatchilik muhokamasiga asoslanadi. Endi ushbu masalaga aniqroq oydinlik kiritish maqsadida kreativlik va ijodiy qobiliyatning o'zaro aloqadorligi muammosiga e'tibor qaratmaiz. Kreativlik va ijodiy qobiliyat o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, uni tushuntirish ham kreativlikning psixologik tabiatini ochishda o'ta ahamiyatli sanaladi.

Qoidaga ko'ra, ijodiy qobiliyat – har bir kishida turlicha bo'ladi. YA'ni kimdadir musiqaga, kimdadir haykaltaroshlikka va yana kimdadir boshqa bir turdagi sohalarga nisbatan ijodiy qobiliyatlar mavjud bo'ladi. SHaxsning ijodiylikni uning harakatchanligi, yaratuvchanligi, originalligi va biror bir shu yuzasida erishgan yutuqlari doirasida kuzatish mumkin. SHuningdek, hanuzgacha, ijodiy qobiliyatlarni o'rganish borasida turlicha fikrlar va nazariyalar mavjud. SHaxsdagi ijodiy qobiliyatlarni aniqlash uchun ularda turlicha metodikalar o'tkazish orqali aniqlash mumkin. Bir tomondan ijodiy qobiliyatlar, shaxsning psixologik va jismoniy tomonlari va taraqqiyoti bilan ham bog'liq. YA'ni ularning (qandaydir) jismoniy passivroq bo'lgan kishida sog'lom odamga nisbatan yuqori ijobiylik bo'lishi mumkin.

Ko'pincha sog'lom kishilar jismoniy ongsiz kishilarga qaraganda, irodasiz va ma'suliyatsiz bir ishni oxiriga yetkaza olmaydigan bo'lishi mumkin. Insondagi ijodiy qobiliyatlar insonning yoshiga va oilaviy muhitiga va tarbiyasiga ham bog'liq bo'ladi. Ijodiy qobiliyatlarni aniqlash ham aqliy intilishni aniqlash kabi murakkab jarayondir. Ijodiy qobiliyatlar turli yosh davrlarida turlicha bo'lishi va u ko'pincha, insonning ruhiy holatini ham o'z ichiga oladi.

Bizningcha, shaxsdagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun bevosita uni o'zi qiziqqan va hohishi bo'lgan sohalarga yo'naltirish orqali uning ijodiyligini oshirish va uning yuqori muvaffaqiyatlarga erishishini ta'minlash mumkin. Ijodiy qobiliyatlar va ularni rivojlantirish shaxsning bevosita o'ziga ham bog'liq. Ijodiy qobiliyatlar tug'ma va orttirilgan bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, insondagi orttirilgan ijodiy qobiliyat bu - hayot davomida va kimningdir xatti - harakatlarini kuzatish va ularning hayotiga havas qilish orqali namoyon bo'lishi mumkin. Kreativlik namunalarini insonda erta namoyon bo'lib, u o'quvchining rostgo'yligi, adolat hissiga egaligi, hodisalarni tez tasavvur qila olishi, ajablanish tuyg'usiga egaligi, yechimlardan taajjublana olishi kabi xususiyatlarida aniq namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Dolgorukov A. Metod case-study kak sovremennaya texnologiya professional'no-oriyentirovannogo obucheniya: http://www.vshu.ru/lections.php?tab_id=3&a=info&id=2600.
2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
3. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 81-b.
4. Savel'yeva M.G. Pedagogicheskiye keysi: konstruirovaniye i ispol'zovaniye v protsesse obucheniya i otsenki kompetensiy studentov / Ucheb.-met.posobiye. – Ijevsk: FGBOUVPO "Udmurtskiy universitet", 2013. – S. 9.
4. Nishonova S. Vospitaniye sovershennogo cheloveka v razvitii pedagogicheskoy misli epoxi vozrojdeniya Vostoka: Ped. fanlari dokt. diss. avtoref. – T., 1998. – 37 b.
5. Ernazarova G.O., Isroilov Q.T. Bo'lg'usi tarix o'qituvchilarida kreativlikni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari/ Akademik research in educational sciences (ARES), ISSN 2181-1385, volume 2, issue 4, april 2021, p.1613-1619.